

BOLANI SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIDA TARBIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

*O'razaliyeva Lobar Baxtiyor qizi
JDPU Maktabgacha ta'lif yo'nalishi 3-kurs talabasi*

ANNOTATSIYA: Mazkr maqolada tarbiya va uning turlari, bolani shaxs sifatida shakllanishida tarbiyaning ro'li , mutaffakkir va olimlarning tarbiya to'g'risida fikrlari va qarashlari haqida malumotlar berilgan.

TAYANCH SO'ZLAR: Tarbiya, bola, Shaxs, G'arb va sharq mutaffakkirlari fikrlari

Tarbiya -inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan biridir. Tarbiya -- biror maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib , u muayyan darajadagi dastur g'oyalari asosida maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar tomonidan tashkil etiladi. Tarbiya anniq maqsadlarni ko'zlab , sistemali ravishda insonda ijtimoiy fazilatlarni tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladi. Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta'sirlarning barchasi bilan bog'liq holda ta'sir qiladi . Tarbiya - o'qituvchi va o'quvchi yoki tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida tashkil etiluvchi faoliyat bo'lib , tarbiyalanuvchini malum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish ,jamiyatning ijtimoiy -tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni hartomonlama shakllantirish ,uning xulq atvori va dunyoqarashini , ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi , ma'naviy boyligi va his tuyg'ulari rivojlanadi., o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan kishilar bilan o'zaaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga hizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya hususida taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning " Alhosil , tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo falokat, yo saodat ,yo razolat masalasidir "-- deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir.Ushbu fikrlaran anglaniladiki , shaxs tarbiyasi xususiy ish emas , ijtimoiy , miilliy va davlat ishidir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'qituvchidagi tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta'riflaydi : "Tarbiyachi ustoz bo'lish uchun . boshqalarning aql idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand bo'lish , haqiqiy vatanparvar , haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun , eng avvalo , tarbiyachinng o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi , ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak". Demak , bu so'zlardan ko'rinish turibdiki bolalarga tarbiya berishda tarbiyachi, o'qituvchi pedagoglarning o'rni nihoyatda ahamiyatlidir. Tarbiya ta'sirida muhit ta'siri bera olmagan fazilatlar o'zlashtiriladi, ya'ni bilim ,

malumot egallanadi. Tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib , shaxsni kamolotga yetkazish mumkin. Masalan ko'rlar , gunqlar ham o'qitilib , sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini bartaraf etish mumkin. Tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning hal qiluvchi roli ko'zi ojiz va kar bolalar uchun mo'ljallangan jamoat tashkilotlarida ayniqsa , aniq namoyon bo'ladi. Bunday bolalar uchun ishlab chiqilgan tarbiya sistemasi, ularni turmushga va mehnat faoliyatiga tayyorlashni ta'minlaydi. Biroq tarbiya bola rivojlanishini jadallashtirmasligi, uning birr tomonining ruhiy rivojlanishini sun'iy ravishda tezlashtirmasligi kerak. Shuning uchun ham Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsini hartomonlama va uyg'un rivojlantirish ,uning rivojlanishini boyitish maqsadi o'rtaqa qo'yiladi.

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli pedagogning ham yetakchilik rolini , uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun ma'suliyatini qaror toptiradi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko pedagokning roli va ma'suliyatini ta'kidlab shunday yozgan edi: " Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta;sir ko'rsata olishiga ishonchim komil . Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u tarbiyadan va o'z bolaligidan qarzdordir. Tarbiya va ta'lim jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo'lgan mazmunni tanlaydi. Bunda bolaning ruhiy fiziologik imkoniyatlari , ularning jo'shqinligi hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tarbiya jarayonining o'zi doimiy bo'lib qolmaydi . U o'zgarib boradi , uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o'zgaradi , o'sayotgan odam shaxsiga ta'sir ko'rsatish usullari tobora xilma-xil bo'lib boradi . Tarbiyaning o'zgarishi bolaning "eng yaqin rivojlanish zonalari " bilan bog'liq bo'lib , ular ancha murakkab mazmundagi bilimlar, ko'nikmalar , faoliyat turlari va hakovolarni o'zlashtirishga ruhiy -fiziologik imkoniyatlar paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Masalan , emaklashdan keyin yurish , bijir -bijirdan keyin faol nutqni o'zlashtirish , ancha miqdordagi tasavvurlarga rga bo'lgandan keyin tushunchalar darajasidagi bilimlarni o'zlashtirish, buyum asosidagi o'yin , mehnat faoliyatining vujudga kelishi va hokozolar. Tarbiya va ta'lim "eng yaqin rivojlanish zonasasi "ga asoslanib, bugungi rivojlanish darajasidan oldinda boradi va bolaning rivojlanishini olg'a harakatlantiradi. Tarbiya shunday jarayonki , u insonni o'stiradi, rivojlantiradi, shaxs sifatida shakllantiradi. Tarbiyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini yuqorida keltirilgan fikrlar va malimotlardan ham anglashimiz mumkinki inson paydo bo'lgandan to bugunga qadar, bola tug'ilganidan to keksalikka yetgunga qadar tarbiyaning roli muhim hisoblanaveradi . Tarbiya qadimda ham o'z tushunchasiga , mohiyatiga ega bo'lgan bo'lib qadimda yashab o'tgan mutaffakkirlar-u olimlar ham tarbiya hususida uning dolzarbligi va muhim jihat ekanligi haqida ham o'z fikrlari va qarashlarini bayon etishgan . Jumladan , Imom Bayzoviy tarbiya tushunchasiga quyidagicha ta'ruf beradi, "Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga

yetkazishdir" Rog'ib Asfihoni esa , " Tarbiya bir narsani bir holdaan ikinchi holga o'tkazib borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir" deya ta'kidalashadi. Shuningdek Abu Nasr Forobiyning fikricha, "bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog'i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo'lmog'i lozim" degan xulosaga keladi. Buyuk mutaffakkir Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u qanchalik bilimli aqlii-hushli bo'lsa , ota onaning yuzi shunchalik yorug' bo'ladi ". Yusuf Xos Hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi . U beldan madorni , tandan quvvatni, ko'zdan nurni , dildan oromni talab etadi degan fikrlarni bildiradi. Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rinni egallaydi . U o'zining qator asarlarida bolaning salomatligi , uning tarbiyasi haqida eng muhimi bola ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmatbaho fikrlarni asoslagan. Masalan uning "Tadbir ul-manozil " nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalasiga bag'ishlangan. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib , uni bolaning yoshligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutaffakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. Uning fikricha jamiyatning yetukligi , uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bn bog'liqidir , shunga ko'ra bola tarbiyasi ota onalar oldida turgan oliyjanob vazifadir deydi. Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning falsafiy va pedagogik qarashlarida tarbiyadan kutilgan maqsad insonni bilishlarini bilib olishga erishish , uni yuksak axloqli qilib kamol toptirishdir deb takidlaydi. Yuqoridagi fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki tarbiya inson hayoti uchun , bolani yuksak ma'naviyatli , barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Tarbiyani har jahhada ko'rishimiz mumkin . Oilada , jamoada, atrof-muhitda, MTT da Maktabda harjoydagি muhit assosida yuzaga chiqadi , shakllanadi . Avvalo to'g'ri tarbiya oiladan boshlanadi, chunki inson avvalo oilada shakllanadi . Keyinchalik atrof muhit bolaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oilada olingan tarbiya ota onadan katta ma'suliyatni ta'lаб etadi, jumladan oiladan yoshligidan shakllangan tarbiya bardavom bo'ladi. Avvalo tarbiya ona qornidaligidayoq shakllanishi hechkimga sir emas . Bo'ladigan bola boshidan ma'lum deganlaridek bolaligidan to'g'ri tarbiya olgan bolaning kelajagi porloq bo'ladi. Zero Prezidentimiz ta'kidalaganlaridek " Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan ,ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplash, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muommolarini yechishi uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak" degan edilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. F.QODIROVA, SH,Toshpo'latova, N.Kayumova, M.Azamova "Maktabgacha pedagogika" Toshkent -2019 100 -125 betlar
2. M.Xajiyeva Xoja Ahmad yassaviyning ma'naviy tarbiyaviy qarashlari .Avtoreferat. 2004 yil

3. Z.I .Qayumova , G.B.Tosheva" SHarq mutaffakirlari va pedagog olimlarning bola tarbiyasi to'g'risidagi qarashlari " Toshkent 2020 3-20betlar
4. Xolmatova F. " Buyuk mutaffakkirlarimizning tarbiyaga oid qarashlari" samarqand 2023 -yil
5. M.Ro'zigul , Z.Shohida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda G'arb va Sharq davlatlari mutaffakirlarining yondashuvlari" 2023-yil 18-26 betlar

